

## “KEYS-STADI” METODI ASOSIDA AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

*Xolmatov Pardaboy Qorabekovich*

*TIFT Universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi v.b.professori.Turon fanlar  
akademiyasi professori, Toshkent, O‘zbekiston.*

*e-mail: [xolmatov\\_p@gmail.com](mailto:xolmatov_p@gmail.com)*

Mamlakatimizning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog‘liqdir. Ta’lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib yoshlarni jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma’naviy jihatdan etuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishini ta’minlash, qobiliyat hamda iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shu nuqtai nazardan texnologiya darslarida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Bu ta’lim texnologiyalari dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Masalan **Keys-stadi** inglizcha “case” – aniq vaziyat, “stadi” – ta’lim so‘zlarining birikuvidan hosil qilingan bo‘lib, aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta’lim metodidir.

Mazkur metod muammoli ta’lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o‘rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi.

Agar u o‘quv jarayonida ma’lum bir maqsadga erishish yo‘li sifatida qo‘llanilsa, **metod xarakteriga** ega bo‘ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma’lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, **texnologik** jihatni o‘zida aks ettiradi.

**Keys (vaziyat)** – ishlab chiqarishda sodir bo‘ladigan real muammoli vaziyatning tafsilotidir.

**Keys-stadi metodi** – ishlab chiqarish masalalarini mashg‘ulotlarda tahlil qilish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish bo‘yicha kompetensiyalarni shakllantirish metodi hisoblanadi.

Bu metoddan foydalanish uning tuzilmasi va bosqichlari asosida amalga oshiriladi (1-2-shakllar).

1-shakl

## “Keys-stadi” metodining tuzilmasi



2-shakl

## “Keys-stadi” metodini amalga oshirish bosqichlari



### Texnologiya fanidan keys topshiriqlari turlari

Keys topshiriqlarini ishlab chiqishda keys tipologiyasi muhim o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra Texnologiya fani keys topshiriqlari turlari ishlab chiqiladi.

### Keyslar tipologiyasi

Tipologik belgilari	Keys turi
Asosiy manbalari	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bevosita obektda olib boriladigan.</li> <li>2. Ta’lim jarayondagi.</li> <li>3. Ilmiy-tadqiqotchilik.</li> </ol>
Syujet mavjudligi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Syujetli.</li> <li>2. Syujetsiz.</li> </ol>
Vaziyat bayonining vaqtdagi izchilligi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O’tmish va bugungi kunni bog‘lash asosidagi keys.</li> <li>2. Avval bo‘lib o‘tgan voqelikka asoslangan keys.</li> <li>3. Istiqbolga yo‘naltirilgan keys.</li> </ol>
Keys obekti	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Alohida obektga yo‘naltirilgan.</li> <li>2. Tashkiliy-institutsional.</li> <li>3. Ko‘p obektli.</li> </ol>
Materialni taqdim etish usuli	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Hikoya.</li> <li>2. Esse.</li> <li>3. Tahliliy ma’lumot.</li> <li>4. Jurnalistik taftish.</li> <li>5. Hisobot.</li> <li>6. Ocherk.</li> <li>7. Faktlar majmui.</li> <li>8. Statistik materiallar majmui.</li> <li>9. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui.</li> </ol>
Hajmi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qisqa.</li> <li>2. O‘rtacha.</li> <li>3. Katta.</li> </ol>
Tuzilmaviy o‘ziga xos xususiyatlari	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Aniq strukturaga ega bo‘lgan.</li> <li>2. Aniq strukturaga ega bo‘lmagan.</li> </ol>
O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Savolli.</li> <li>2. Topshiriq tarzidagi.</li> </ol>
Didaktik maqsadlari	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Muammo, yechim yoki konsepsiyani izohlash.</li> <li>2. Biror mavzuga bag‘ishlangan trening mashg‘uloti fan bo‘yicha ko‘nikma va</li> </ol>

	malakalarni hosil qilishga mo’ljallangan. 3. Tahlil va baholashga o’rgatuvchi. 4. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvga doir qarorlar qabul qilishga o’rgatuvchi.
Taqdim etish usuliga ko’ra	1. Bosma. 2. Elektron. 3. Video-keys. 4. Audio-keys. 5. Multimedia-keys.

### Texnologiya fanidan keys topshiriqlari turlari

Turi	Tavsifi	Keys topshirig’i mazmuni
<b>Amaliy</b>	Texnologiya fanida foydalanish mumkin bo’lgan hayotiy vaziyatlar	Keys topshirig’i matn ko’rinishida beriladi, unda ma’lumotlar keragidan ko’p yoki yetishmasligi ham mumkin. Muammoning muqobil yechimlari bir nechta bo’lishi mumkin. Ularning orasidan eng maqbulini tanlash talab qilinadi.
<b>O’rgatuvchi</b>	Texnologiya faniga doir o’quv vaziyatlari va masalalari	Keys topshirig’i texnologiyaning biror bo’limi doirasida matn ko’rinishida beriladi. bir-biri bilan bog’liq va qo’yilgan masala yechimiga olib keluvchi bir necha kichik masalalar ro’yxati keltiriladi.
<b>Tadqiqot</b>	Vaziyatning texnik va texnologik modelini qurish hamda tadqiq etish	Keys topshirig’i matn ko’rinishida beriladi. Unda ma’lumotlar keragidan ko’p yoki yetishmasligi ham mumkin. Muammoning bir nechta muqobil texnologiyaviy modellari va ularga mos yechimlari bo’lishi mumkin.

## “Keys-stadi” metodidan foydalanib amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish

“Keys-stadi” metodidan foydalanib amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish o‘quvchilarga real hayotiy vaziyatlarni asosida aniq qarorlar qabul qilish hamda mustaqil holda kreativ fikrlashga undaydi. Shundan kelib chiqqan holda quyidagi keys topshiriqlari namunalari bilan tanishib chiqamiz.


### Keys topshiriqlari namunalari

**1-keys.** Ro‘zg‘orda doimiy foydalaniladigan plastmassa idishlari o‘ziga turli xil xidlarni tez saqlab qoladi. Ayniqsa piyoz va sarimsoq piyozning hidlarini yuvib ketkazish ancha mushkul. Bunday hollarda qanday yo‘l tutish mumkin?



**Javob varianti:** Parma yordamida ortiqcha teshilgan joyga yog‘och qipig‘I bilan yelim aralashmali massa surtiladi. Massa qotgach uning usti qum qog‘oz bilan tekislanadi. Teshilib qolgan joyga shu o‘lchamdagi ponani qoqib joylashtirib nuqsonni bartaraf etish mumkin.

### Ovqat tayyorlash jarayonida tayyorlanayotgan ovqatning mazasi sho‘r bo‘lib qolsa qanday yo‘l tutasiz?



**Javob varianti:** ovqatga yana qo‘shimcha kartoshka, guruch qo‘shaman, chunki ular tuzni o‘ziga tez tortib oladi. Suyuq taomlarga suv qo‘shib bir oz qaynatish kerak. Ovqat sal ko‘payadi, lekin bu yo‘l orqali sho‘r ta‘mdan qutilish mumkin (yoki boshqa asosli javoblar).


### Mix qoqish jarayonida reyka yorilib ketsa qanday yo‘l tutasiz?



**Javob:** Reykani yorilgan qismiga taxta yelimini surtib iskanjaga mahkamlab qo‘yiladi. Yelim qotgach mix boshqa joydan uriladi.

## 4-keys

Qalamdon yasashda parmalash stanogi yordamida teshik ochiladi. Ochilishi rejalashtirilgan teshik rejadan ko’p bo’lib qalamdonning oxirgi nuqtasigacha yetib bordi. Bunday hollarda qalam qalamdondan tushib ketadi. Bu holatda qanday yo’l tutish lozim?



**Javob varianti:** Parma yordamida ortiqcha teshilgan joyga yog’och qipig’i bilan yelim aralashmali massa surtiladi. Massa qotgach uning usti qum qog’oz bilan tekislanadi. Teshilib qolgan joyga shu o’lchamdagi ponani qoqib joylashtirib nuqsonni bartaraf etish mumkin.

### 5-keys.

**Keys bayoni:** Qo’qon do’ppisining bahosi 650 so’m dan, Marg’ilon do’ppisining bahosi 530 so’m dan, Iroqi do’ppi 580 so’m dan ekanligi ma’lum. Agar sotuvchi bir kunda 10 dona Qo’qon do’ppisi, 6 dona Marg’ilon do’ppisi va bir nechta Iroqi do’ppi sotib, 12000 so’mlik savdo qilgan.

**Keys savoli:** Nechta Iroqi do’ppi sotilgan?



O’qituvchining yechimi:

Do’ppi turi	Bitta do’ppi narxi (so’m)	Sotilgan do’ppilarning miqdori	Bir turda yig’ilgan narx (so’m)	Jami savdo (so’m)
Qo’qon	650	10	6500	12000
Marg’ilon	530	6	3180	
Iroqi	580	x	580 x	

$$\begin{aligned}6500 + 3180 + 580 \cdot x &= 12000 \\580 \cdot x &= 12000 - (6500 + 3180) \\580 \cdot x &= 2320 \\x &= 2320:580 \\x &= 4\end{aligned}$$

**Javob:** 4 dona Iroqi do‘ppi sotilgan.

### Noan’anaviy keys topshiriqlari

**1. Nozmunchoqdan gul, geometrik va boshqa shakllar to‘qish vaqtida ip uzilib ketdi. Vaziyatdan qanday chiqish mumkin?**

- A) Yangi ipga tizaman 50%
- B) Ipni bir biriga ulayman 25%
- C) Qo‘lda katak daftarning kataklarining ustiga sekin tizib chiqaman 5%
- D) Buyum ustiga yopishtirib joylashtirib quyib chiqaman 20%

**2. Soch bezak turlariga nozmunchoqlarni yopishtirayotganda yelim tugab qolsa nima qilish mumkin?**

- A) Igna ipda ishlov beraman 50%
- B) Dazmol bilan kuydirib chiqaman 10%
- C) Tabiiy materiallar yelim tayyorlab yopishtirib chiqaman 30%
- D) Un mahsulotlaridan yelim tayyorlab yopishtiraman 10%

**3. Dog‘ bo‘lgan yumshoq o‘rindiqlarni qanday tozalash mumkin?**

- A) Tuzli suv bilan artaman 50%
- B) Dokada qo‘yib dazmollayman 20%
- C) Kul sepib tozalayman 10%
- D) Oftobda quritib ishqalayman 20%

**4. Metall oshxona jihozlari yemiriliyapti uni qanday oldini olish mumkin?**

- A) Gelda yoki kir yuvish vositasida yuvaman 20%
- B) Azotli suvda qaynataman 40%
- C) Xlorli suv bilan tozalayman 10%
- D) Yog‘lab qo‘yaman 30%


**5. Sabzavotlarni qaynatayotganda yorilib ketmasligi uchun nima qilish mumkin?**

- A) Qaynatishda tuz qo‘shib qaynatish kerak 50%
- B) Qaynatishda bir meyorini ushlash kerak 30%
- C) Past olovda qaynatish kerak 10%
- D) Qaynatishda maza-ta‘mberuvchi qo‘shimchalar qo‘shish kerak 10%




6. Yog‘ochga ishlov berishda ishlatiladigan rejalash asboblari aniqlab jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlatni yozing.

- 1) shayton,
- 2) nutromer,
- 3) kronsirkul,
- 4) metr ruletka,
- 5) taxlama metr,
- 6) xatkash,
- 7) go‘niya.



7. Quyidagi karam turlarining rasmlarini uning nomlari bilan birlashtiring.



**Karam nomlari:** bryussel karami, gul karam, qizilbosh karam, pekin karami, kolrabi karami.

Yuqorida berilgan noan’anaviy keys topshiriqlarida to’g’ri javobga eng yaqini tanlab olinadi. Qaysi javobni foizi katta bo’lsa shu javob to’g’ri javob hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279b.

2. Jurayev R.X., Zunnunov A. Ta’lim jarayonida o’quv fanlarini integrasiyalash. – T.: “Sharq”, 2005. 5-bet.

3. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.-172 b.

4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006.-163 b.

5. Tohirov O‘.O. Texnologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovasiyalar. // O‘quv moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: Toshkent shahar XTXQTMOHM, 2019.-134 b.

#### **Internet resurslari:**

1. [www.dr.rtm.uz](http://www.dr.rtm.uz)
2. [www.texnologiya.zn.uz](http://www.texnologiya.zn.uz)
3. [www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz).
4. [www.giu.uz](http://www.giu.uz)